



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60530100 – Kimyo
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60530100 – Kimyo

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: AXMEDOV VOHID NIZOMOVICH

Buxoro davlat texnika universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: MADRAHIMOV SHERZOD TOHIROVICH

Hamad Bin Khalifa University

professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260062
Xulosa raqami	1135
Xulosa sanasi	25.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Namangan shahri, Davlatobod tumani, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Litsenziya: № 2734834, 20.02.2025. Guvohnoma: MAS № 0000389, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Kimyo
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60530100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2734834, 20.02.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60530100 – Kimyo
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60530100 – Chemistry
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60530100 – Химия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Kimyogar, kimyo fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	900 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Namangan shahri, Davlatobod tumani, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

60530100 – “Kimyo” bakalavriat ta'lim dasturini boshqarishning tashkiliy asoslari va ichki sifatni ta'minlash tizimi mazkur bob doirasida baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar dastur ijrosiga mas'ul tarkibiy bo'linma faoliyati aniq yo'lga qo'yilganini, uni zarur moddiy-texnik hamda moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanganini tasdiqladi. Mas'ul bo'linmaning vakolatlari, funksiyalari va vazifalari ta'lim dasturini samarali boshqarish hamda uning sifatini izchil takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, istiqbolli rivojlanish rejasi ishlab chiqilgani, ichki sifat monitoringi mexanizmlari joriy etilgani va manfaatdor tomonlarning ta'lim dasturini rivojlantirishdagi ishtiroki ta'minlangani aniqlandi. Kimyo yo'nalishida laboratoriya mashg'ulotlari muhim o'rin tutishini inobatga olib, laboratoriya bazasini bosqichma-bosqich rivojlantirish masalalarining boshqaruv hujjatlarida o'z aksini topgani ta'lim sifatini barqaror ta'minlashning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlari ushbu yo'nalish bo'yicha belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga rioya etilganini tasdiqladi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Mazkur bobda 60530100 – “Kimyo” bakalavriat ta'lim dasturining mazmuni, uni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi hamda amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi baholandi. Taqdim etilgan materiallar ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlashning belgilangan tartibi mavjudligini, ushbu jarayonga ish beruvchilar, soha mutaxassislari hamda professor-o'qituvchilar jalb etilganini ko'rsatdi. Dastur maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va bitiruvchilarda shakllantirilishi nazarda tutilgan kompetensiyalar davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga mos ravishda belgilanganligi aniqlandi. Shuningdek, ta'lim dasturi yakunida bitiruvchilarga “Kimyogar, kimyo fani o'qituvchisi” kvalifikatsiyasi berilishi

mazkur yo'nalishning ilmiy va pedagogik tayyorgarlikni o'zida uyg'unlashtirishga qaratilganini tasdiqlaydi. Kimyo fanining nazariy va amaliy tayyorgarligini pedagogik kompetensiyalar bilan uzviy bog'lash bitiruvchilarning ham mutaxassis, ham ta'lim muassasalarida faoliyat yurita oladigan pedagog sifatida shakllanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholandi. Baholash yakunlari ta'lim dasturi mazmuni amaldagi akkreditatsiya mezonlariga muvofiq tashkil etilganini namoyon etdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Mazkur bobda o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv rejalari va fan dasturlarini shakllantirish hamda ta'lim natijalarini baholash tizimining amaldagi holati ko'rib chiqildi. Taqdim etilgan hujjatlar o'quv rejalari va sillabuslar ish beruvchilar, talabalar hamda soha mutaxassislarning takliflari inobatga olingan holda Milliy malakalar ramkasi, davlat ta'lim standartlari, kasbiy standart va malaka talablari asosida ishlab chiqilganini ko'rsatdi. O'quv jarayoni ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan natijalariga yo'naltirilgani, talabalar bilimini baholash mezonlarining ochiqligi ta'minlangani hamda akademik halollik tamoyillarini qo'llash bo'yicha amaliy mexanizmlar samarali yo'lga qo'yilgani kuzatildi. Kimyo yo'nalishining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, laboratoriya mashg'ulotlarini nazariy fanlar bilan uzviy bog'liq holda rejalashtirish talabalarda eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash va kutilayotgan o'quv natijalariga erishishda muhim omil sifatida baholandi. Baholash davomida mazkur yo'nalish bo'yicha joriy etilgan yondashuvlarning akkreditatsiya mezonlari talablariga uyg'unligi namoyon bo'ldi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Mazkur bobda talabalarni qabul qilish tizimi, qabul jarayonining shaffofligi, talabalar kontingenti harakati hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaldagi holati baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar qabul mezonlari va talablari aniq belgilanganini, ular abituriyentlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar uchun ochiq e'lon qilinishini, qabul jarayonlari esa amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tashkil etilganini ko'rsatdi. Talabalar harakatini tartibga solish, murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish hamda akademik, ijtimoiy va maslahat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha zarur mexanizmlar izchil yo'lga qo'yilgani kuzatildi. Kimyo yo'nalishida laboratoriya mashg'ulotlari ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligi sababli, qabul parametrlarini mavjud laboratoriya bazasi imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish, talabalarni amaliy mashg'ulotlar uchun guruhlariga oqilona

taqsimlash ta'lim sifatini barqaror saqlashning muhim shartlaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha o'rganilgan dalillar talabalar faoliyatini tashkil etish amaldagi akkreditatsiya talablari asosida yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Mazkur bobda ta'lim dasturini amalga oshirishda ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning ilmiy salohiyati hamda kadrlarni rivojlantirishga qaratilgan tizimning samaradorligi baholandi. Taqdim etilgan ma'lumotlar professor-o'qituvchilar tarkibi ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega mutaxassislar bilan ta'minlanganini, shuningdek ilmiy daraja va unvonlarni oshirish masalalari kafedraning istiqbol rejasida alohida yo'nalish sifatida belgilanganini ko'rsatdi. Mazkur chora-tadbirlar orqali ta'lim dasturida faoliyat yuritadigan professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini 100 foizdan kam bo'lmagan darajada ta'minlash maqsadi ko'zda tutilgani aniqlandi. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, malaka oshirish va mehnatini rag'batlantirish bo'yicha amaliy mexanizmlar izchil qo'llanilayotgani kuzatildi. Ilmiy salohiyatni to'liq ta'minlashga qaratilgan maqsadlarning strategik rejalarda mustahkam aks ettirilgani kadrlar siyosatini izchil rivojlantirish va ta'lim sifatini barqaror ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. O'rganish natijalari inson resurslarini boshqarish tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mos ravishda yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Mazkur bobda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik ta'minot, laboratoriya bazasi, o'quv-uslubiy resurslar hamda ta'lim muhitining xavfsizlik va foydalanish sharoitlari baholandi. Taqdim etilgan dalillar amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnik vositalar va xomashyo materiallari mavjudligini hamda ularning ta'lim dasturi maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalariga mos kelishini ko'rsatdi. Har bir fan bo'yicha o'quv adabiyotlari, uslubiy qo'llanmalar va zarur o'quv-metodik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi yetarli ekani, laboratoriyalarda birinchi tibbiy yordam vositalari, evakuatsiya sxemalari hamda mehnat muhofazasi va xavfsizlik talablariga oid jurnallar muntazam yuritilishi kuzatildi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim sharoitlarini yaratishga oid 6.4-mezon bo'yicha binolar va mavjud jihozlarni nogironligi bo'lgan talabalar ehtiyojlariga yanada moslashtirish, shuningdek maxsus o'quv materiallari va vositalarini kengaytirish zarurligi sababli mezon qisman

muvofig deb baholandi. Mazkur yo'nalishda sharoitlarni bosqichma-bosqich takomillashtirish tavsiya etildi. Qolgan barcha indikatorlar bo'yicha moddiy-texnik ta'minot belgilangan talablarni qanoatlantirishi qayd etildi va bob doirasidagi umumiy baholash ijobiy deb e'tirof etildi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlarni nogironligi bo'lgan talabalar ehtiyojlariga to'liq moslashtirish talab etiladi (6.4-mezon qisman muvofig deb baholangan).
- ✓ Yirik qabul parametri sharoitida laboratoriya quvvatlarini rejali kengaytirish zarurati mavjud.
- ✓ Ilmiy salohiyatni 100 foizga yetkazish maqsadi hozircha reja bosqichida.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Binolar, jihozlar va sanitariya sharoitlarini inklyuziv ta'lim talablariga bosqichma-bosqich moslashtirish.
- ✓ Laboratoriya xonalari va uskunalar bazasini talabalar kontingentiga mos kengaytirib borish.
- ✓ Kafedra Istiqbol rejasiga muvofig ilmiy daraja va unvonlarni oshirishni izchil davom ettirish.
- ✓ Zamonaviy o'quv adabiyotlari fondini yangilab borish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Namangan davlat texnika universitetida 60530100 – "Kimyo" bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik infratuzilma kompleks ravishda baholandi. O'rganish jarayonida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali shakllantirilgani, dastur davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgani, o'quv jarayonida shaffof baholash va akademik halollik tamoyillari izchil qo'llanilayotgani aniqlandi. Shuningdek, talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali faoliyat yuritayotgani, professor-

o'qituvchilar tarkibi belgilangan talablarga javob berishi hamda laboratoriyalarning zarur asbob-uskunalar, xavfsizlik vositalari va o'quv-metodik resurslar bilan ta'minlangani qayd etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, 27 ta mezondan 26 tasi muvofiq, 6.4-mezon esa qisman muvofiq deb baholandi. Mazkur mezon yuzasidan bildirilgan tavsiyalar inklyuziv ta'lim sharoitlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ular ta'lim dasturining umumiy sifatiga ta'sir ko'rsatadigan kamchilik sifatida baholanmadi. Umuman olganda, mavjud dalillar 60530100 – "Kimyo" bakalavriat ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya talablari va sifat mezonlariga muvofiqligini tasdiqlaydi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

